



## NOQONUNIY MIGRATSIYANING IJTIMOY XAVFLILIGI VA JINOY JAVOBGARLIK MASALALARI

Alimboyeva Xosiyat Maxsud qizi

Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti, Nukus, O'zbekiston.  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19677264>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 16-aprel 2026 yil  
Ma'qullandi: 18-aprel 2026 yil  
Nashr qilindi: 21-aprel 2026 yil

### KEYWORDS

*migratsiya jarayonlarining nazoratsizligi, noqonuniy migratsiyaning ham o'ziga xos ijobiy va salbiy oqibatlari, noqonuniy migratsiyaning ijtimoiy xavfliligi.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada jamiyatdagi har qanday ijtimoiy hodisaning o'ziga xos xususiyati bo'lgani kabi, noqonuniy migratsiyaning ham o'ziga xos ijobiy va salbiy oqibatlari mavjudligini ko'rib o'rganib chiqamiz va noqonuniy migratsiya qanday oqibatlarga olib kelishi haqida tubdan qarab chiqamiz.*

Hozirgi zamonaviy dunyo barcha sohalarining globallashuvi fonida o'zaro bir-biriga bog'liq holda rivojlanmoqda, bu payda esa, resurslarning nomutonosibliigi davlatlarning rivojlanishi, aholining hayoti va farovonlik darajasi o'rtasida farq va qarama-qarshiliklarga olib kelmoqda. Natijada, bugungi kunda jamiyatda insoniy qadriyatlar va rivojlanish modellari global raqobat predmetiga aylandi hamda xalqaro hamjamiyatning yangi chaqiriq va tahdidlar oldida zaif ekanligini yaqqol namoyon etmoqda.

Bunday sharoitda migratsiya jarayonlarining nazoratsizligi va muayyan darajada tartibga solinmasligi mahalliy mehnat va turar joy bozoridagi raqobatning kuchayishiga, etnik va subetnik stereotiplar va xulq-atvor normalarining to'qnashuviga, ba'zi migrantlarning ijtimoiy va madaniy munosabatlarini marginallanishi hamda migrantlar kriminallashtirishining keskinlashishiga olib kelmoqda hamda davlatlarning milliy xavfsizligiga tahdid solmoqda. Garchi yuz berayotgan mazkur jarayonlar dunyoda migratsiya jarayonlarining ortishi muqarrarligiga olib keladi. Ushbu holat hisobga olinsa, davlatimiz uchun ham noqonuniy migratsiyaning mamlakat xavfsizligi, jinoyatchilik darajasiga ta'siri va davlat boshqaruvining muayyan sohalarida korrupsion xavf-hatarlarning ortishi nuqtai nazaridan doimiy ravishda baholab borishni talab etadi.

Holbuki, jamiyatdagi har qanday ijtimoiy hodisaning o'ziga xos xususiyati bo'lgani kabi, noqonuniy migratsiyaning ham o'ziga xos ijobiy va salbiy oqibatlari mavjud. Uning salbiy oqibatlarini ochib berish uchun, avvalombor ushbu qilmishning ijtimoiy xavfliligini baholovchi umumiy xususiyatlarini tushunib olish muhim sanaladi. Biroq, bugungi kunda jinoyat huquqi nazariyasida qilmishning ijtimoiy xavfliligi masalasi munozarali holatlardan biri hisoblanadi. Zero, har qanday qilmishga jinoyatlik tusini berish (kriminallashtirish) uchun, avvalombor uning

ijtimoiy xavflilik darajasi va xususiyati aniqlash lozim. Jinoiy-huquqiy nuqtai nazardan aynan ushbu belgi qilmishga jinoiylik tusini berish uchun asos sifatida xizmat qiladi. Shu sababli jinoyatning asosiy belgilari qatorida qonun chiqaruvchi birinchi navbatda «qilmishning ijtimoiy xavfliligi»ni nazarda tutadi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerkaki, adabiyotlarda muayyan qilmishning ijtimoiy xavfliligi, uning jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazadigan yoki zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqarishi hususiyati bilan aniqlanishi qayd qilinadi. Qilmishning ijtimoiy xavfligini baholashga albatta muayyan qilmishning sodir etilishi natijasida yetkazilgan zararning sifat va miqdor ko'rsatkichlari bevosita ta'sir qiladi. Binobarin, bu borada M.Usmonaliev o'z fikrini bayon qilib, ijtimoiy xavflilik keng va murakkab kategoriya, ekanligini yozadi. Uning to'g'ri ta'kidlashicha, «Jinoyatning ijtimoiy xavfliligi uning sifat ko'rsatkichi hisoblanadi. Aynan qilmishning sifat ko'rsatkichi uni jinoyat deb hisoblash yoki hisoblamaslik masalasini aniqlab beradi. Qilmishda ijtimoiy xavflilikning mavjudligi uning ijtimoiy munosabatga zarar yetkazish yoki zarar yetkazish xavfi ostida qoldirishini bildiradi. Qonun chiqaruvchi organ ijtimoiy xavfli qilmishning ana shu xususiyatlarini hisobga olib uni jinoyatlar doirasiga kiritish yoki kiritmaslik masalasini hal qiladi. Bunda qonun chiqaruvchi organning vazifasi jamiyat rivojlanishining muayyan bosqichida jamiyatning hayotini to'g'ri baholash va qilmishni jinoyat deb hisoblash yoki dekriminalizatsiya qilishdan iboratdir».

Darhaqiqat, *qilmishning ijtimoiy xavfliligi, uning sodir etilishi natijasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga yetkazadigan zararning xususiyati va darajasi bilan belgilanadi, u jinoyatning zaruriy belgilaridan biri sifatida baholanadi hamda qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini baholash orqali unga qarshi kurash yo'nalishlari va choralari aniqlanadi.* Ammo, horijiy davlatlar jinoyat huquqi doktrinasida, ijtimoiy xavflilik qilmishni jinoyat deb baholashda muhim ahamiyat kasb etmaydi, degan fikrlar bildiriladi. Masalan, K. Xamdorf bu borada turli ijtimoiy qatlamlarda jinoyat sodir etishning turli motivlari va shart- sharoitlari mavjudligini ta'kidlab, ular o'rtasidagi farqlarni ajratadi. Bunda u jinoyat tushunchasini ta'riflashda jinoyatning moddiy belgisi - ijtimoiy xavflilikni ifodalashga zarurat yo'qligidan kelib chiqadi. Ayni damda bunday nuqtai nazar boshqa horijiy olimlar tomonidan ham qo'llab-quvvatlandi. Biroq, nazarimizda bunday qarashni to'liq qo'llab-quvvatlab bo'lmaydi, chunki ta'dlaganimizdek qilmishning ijtimoiy xavfliligi har qanday jinoyatning zaruriy belgisi sifatida namoyon bo'lishi kerak. Boisi, ijtimoiy xavfli bo'lmagan qilmish shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga zarar yetkazmaydi. *Bizningcha, ijtimoiy xavflilik qilmish sodir etilishi natijasida muayyan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazishi (zarar yetkazish real xavfini kelitib chiqarishi) natijasida ularni jinoiy-huquqiy vositalar orqali muhofaza qilish uchun ehtiyojni yuzaga keltirishida, ijtimoiy xavfli oqibatlarini keltirib chiqarishida (bunday oqibatlar tashkiliy, mulkiy, jismoniy yoki boshqa mazmunga ega bo'lishi mumkin) va ularni sodir etishda shaxs ruhiy holatining ijtimoiylikka zid bo'lishida (bunday sub'ektiv mezon qilmishning ijtimoiy xavfini oshirishga bevosita ta'sir qiladi) namoyon bo'ladi.* Zero, ijtimoiy xavfli qilmish va ijtimoiy xavfli oqibatlar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'ladi, chunki jamiyat uchun xavfli oqibatlar aynan sodir etilgan qilmishning ijtimoiy xavfliligi tufayli yuz beradi. Shu bilan birga, e'tiborga olish kerakki, alohida hollarda ijtimoiy xavfli oqibatlar muayyan sohada belgilangan tartib va qoidalarning buzilishi natijasida ham kelib chiqadi.

Garchi, muayyan ijtimoiy munosabatlarning alohida ijtimoiy ahamiyati, ya'ni ushbu ijtimoiy munosabatlarning jinoyat qonuni normalari bilan himoya qilishga bo'lgan ehtiyojni

aniqlash, avvalambor qilmishning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalari bilan mustahkamlangan qadriyatlarga putur yetkazishi mumkinligidan kelib chiqadi. Shuni hisobga olgan holda, jinoyat huquqida, birinchi navbatda himoya qilinadigan ijtimoiy munosabatlar sifatida shaxsning huquq va erkinliklarini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlar inobatga olinadi. Biroq, bunda faqat konstitutsiyaviy normalar bilan mustahkamlangan qadriyatlarga zarar yetkazish yoki zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaradigan qilmishlargina ijtimoiy xavfli deb topiladi, degan xulosaga borilmasligi kerak. Balki, qilmishning ijtimoiy xavfliligi va jinoiy-huquqiy muhofazaga olishga muhtojligini aniqlashda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan qadriyatlardan tashqari, davlatning boshqa qonun hujjatlari, muhim davlat dasturlari, strategiyalari va konsepsiyalarida belgilangan ustuvor vazifalarga putur yetkazishi mumkinligi ham inobatga olinishi zarur.

Binobarin, bir ko'rib chiqayotgan noqonuniy migratsiyaning ijtimoiy xavfliligini baholash uchun bunday qilmishlar natijasida qanday ijtimoiy munosabatlarga zarar yetishi yoki ijtimoiy xavfli oqibatlari nimalarda namoyon bo'lishini tahlil qilishimiz muhim hisoblanadi. Bunda ayni paytda, o'rganilayotgan muammo bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarni o'rganish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, ushbu muammoning jinoiy-huquqiy jihatlarini o'rgangan

A.Allanovning yozishicha, g'ayriqonuniy migratsiya oqibatida davlatda tartibsizlik yuzaga kelishi, mamlakat xavfsizligi, suvereniteti va tinchligiga rahna solinishi, qonunga xilof boshqa qilmishlarning oshishi, shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro munosabatlarda salbiy holatlarning yuzaga kelishi mumkin.

Bu borada A.A. Toshtemirovning yozishicha, «Migratsiya jarayonining noqonuniy shakli bugungi kunga kelib xalqaro hamjamiyatni tobora tashvishlantirmoqda, chunki odamlar migratsiyasi (ko'chishi) insoniyat tarixida misli ko'rilmagan darajada tezlashdi. Uni global muammo sifatida qaralishining asosiy sabablaridan biri shuki, «noqonuniy migratsiya» jamiyat hayotining rivojlanishiga qarama- qarshi ta'sir ko'rsatmoqda. Ya'ni, birinchidan, noqonuniy migratsiya davlatlarda demografik inqirozni tezlashtirsa, ikkinchidan mamlakatlarning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, etnik va millatlararo munosabatlardagi rivojlanish tendensiyalariga salbiy ta'sir qilmokda. Shuningdek, mazkur masalada A.A.Otajonovning ta'kidlashicha, noqonuniy migratsiya davlatlarning milliy xavfsizligiga xavf tug'diradi va u millatchilik, siyosiy va diniy ekstremizm, etnik separatizmning kuchayishiga imkon beradi hamda turli xil nizolarning kelib chiqishiga sharoit yaratadi.

Bundan tashqari, ushbu muammoni o'rgangan S.A.Buchakovning qayd etishicha, noqonuniy migratsiyaning ijtimoiy xavfi u mamlakatning milliy va iqtisodiy xavfsizligiga tahdid soladi va yashirin iqtisodiyotning o'sishiga hamda davlat xizmatchilari o'rtasida korrupsiyaning ortishiga olib keladi, mamlakatdagi demografik vaziyatga xavf tug'diradi, millatchilik kayfiyatini rag'batlantiradi, millatlararo nizolarga sharoit yaratadi, mahalliy aholining farovonligini yomonlashtiradi, etnik jinoyatchilikning o'sishiga, kriminallashtirishga va jinoiy tuzilmalarni doimiy ravishda yangi a'zolar bilan to'ldirishga imkon beradi, qonuniy tarzda mamlakatga ko'chib keluvchilardagi bunday istakni so'ndiradi hamda noqonuniy migratsiya xalqaro terrorizm bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u davlatning milliy xavfsizligiga jiddiy tahdid soladi.

Bundan tashqari, L.R.Rashitov ham ushbu fikrni qo'llab-quvvatlagan holda xulosa qilishicha, noqonuniy migratsiyaning ijtimoiy xavfliligi iqtisodiyotning jinoiy sektorini shakllantirishda, muayyan hududlarda kriminogen vaziyatni keskinlashtirishda, taqiqlangan

predmetlarning qonunga xilof ravishda tarqalishida, sanitar-epidemiologik vaziyatga salbiy ta'sir qilishida, migrantlar va mahalliy aholi o'rtasida ijtimoiy qarama-qarshilikni keltirib chiqarishida, ba'zi migrantlarning terroristik tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi natijasida milliy xavfsizlikka tahdid qilishida va iqtisodiy beqarorlik va kapitalning mamlakatdan olib chiqib ketilishida namoyon bo'ladi<sup>1</sup>. Shu bilan birga G.A.Reznik, D.R. Amirova va M.N. Axmedovlar ham noqonuniy migratsiyaning ijtimoiy xavfini uning hududlardagi kriminogen vaziyatni beqarorlashtirishi, korrupsiyaning rivojlanishi, etnik va millatlararo nizolarni keltirib chiqarishi, mamlakatning milliy xavfsizligiga tahdid solishida namoyon bo'lishi kabilarni qayd qiladilar.

Bundan boshqacharoq fikr bildirgan M.A.Magerramov noqonuniy migratsiyaning o'zi va uning oqibatlarini ijtimoiy xavfliligini bir-biridan alohida ajratgan holda tahlil qilish zarur, deb ta'kidlaydi. Uning yozishicha, noqonuniy migratsiyaning xavfliligi, avvalambor, uning salbiy oqibatlari bilan tavsiflanadi hamda mamlakatga kirish, bo'lish yoki tranzit o'tishni tartibga soluvchi mamlakat qonunlariga hurmatsizlikda namoyon bo'ladi, shuningdek, u mamlakatda iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi hamda noqonuniy migrantlarning jinoiylashuvi va viktimligi tufayli ham xavfli hisoblanadi hamda u terrorizm, transmilliy uyushgan jinoyatchilik, giyohvand moddalar va qurol savdosiga imkon berganligi tufayli milliy va xalqaro xavfsizlikka tahdid hisoblanadi. Demak, ushbu muammo bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda, noqonuniy migratsiyaning ijtimoiy xavfliligi e'tirof etiladi hamda bunday qilmishlarning ijtimoiy xavfli oqibatlari sifatida milliy iqtisodiyotga putur yetkazish, korrupsiyaga imkon berish, migrantlar va mahalliy aholi o'rtasida ijtimoiy qarama-qarshiliklarni keltirib chiqarish, sanitariya epidemiologik vaziyatga salbiy ta'sir qilish, kriminogen vaziyatning yomonlashtirish va davlatning milliy xavfsizligiga jiddiy tahdid solishi kabilar qayd qilinadi.

Binobarin, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev jamiyat uchun umumiy xavf-xatarlarga o'z e'tiborini qaratar ekan bu borada shunday deydi: «Barchangizga ayon, hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama- qarshilik va ziddiyatlar tobora keskin tus olmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, **noqonuniy migratsiya**, «ommaviy madaniyat» kabi xavf-xatarlar kuchayib, odamzot asrlar davomida amal qilib kelgan e'tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur yetkazmoqda. Mana shunday va boshqa ko'plab tahdidlar insoniyat hayotida jiddiy muammolarni keltirib chiqarayotgani - ayni haqiqat va buni hech kim inkor etolmaydi.

Bundan tashqari, ta'kidlash joizki, migrantlarning o'zlari ham ko'pincha jinoyat qurbonlariga aylanishadi. Xususan, tadqiqotda qatnashgan migrantlarning 18 foizi bevosita o'zlari jinoyat qurbonlariga aylanishgan hamda 43 foiz migrantlar o'zariga nisbatan qilingan noqonuniy qilmishlar natijasida huquqlari buzilgan, ular buni anglashgan bo'lsa-da, tegishli organlarga murojaat qilishmagan.

Yana shuni qayd qilish muhimki, tahlillarga ko'ra, har yili horijga ketgan fuqarolarimizning 4000 nafardan ortig'i chet el mamlakatlari hududida jinoyat sodir etganligi uchun o'sha davlatlar qonunchiligi bilan jinoiy javobgarlikka tortilish holatlari qayd qilinadi. Masalan, Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan mamlakatdagi jinoyat holati bo'yicha e'lon qilingan statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2022 yilda Rossiya hududida chet el

fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan 10,4 mingta jinoyat sodir etilgan bo'lib, bu 2021 yilga nisbatan 8,1 foizga oshgan. Xususan, Markaziy Osiyodan borgan migrantlar tomonidan 8,4 ming jinoyat sodir etilgan, bu 2021 yilga nisbatan 12,6 foizga ko'pdir.

Noqonuniy migratsiyaning ijtimoiy xavfli oqibatlaridan yana biri, uning *taqiqlangan predmetlarni mamlakatda yoki boshqa mamlakatlarga tranzit o'tkazishga aloqador bo'lishida* hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda jinoyat sodir etgan chet elliklarning 4/1 qismi giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning qonunga xilof muomalasi bilan bog'liq jinoyatlar uchun hukm qilingan. Tahlillarning ko'rsatishicha, Afg'onistondan kontrabanda qilinadigan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar Tojikiston va O'zbekiston orqali Rossiya Federatsiyasi va boshqa chet el mamlakatlariga yuboriladi. Jumladan, Giyohvand moddalarni nazorat qilish milliy axborot-tahlil markazi ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi paytlarda Afg'onistondan Shimoliy yo'nalish orqali giyohvand moddalar savdosining hajmi oshgan. Ayniqsa, mintaqa mamlakatlari bilan faol integratsiya jarayonlari fonida ularning hududlari orqali asosiy giyohvand moddalarning oqimi ortmoqda. Xususan, O'zbekiston transport infratuzilmasi orqali giyohvand moddalarni olib o'tishga urinishlar ko'paygan. Ushbu jarayonlarga migrantlarning keng jalb etilishi kuzatilgan.

Noqonuniy migratsiyaning ijtimoiy xavfli oqibatlardan yana biri *har qanday mamlakatga noqonuniy kirgan yoki bo'lgan shaxslar u yerda mehnat faoliyati bilan shug'ullanishda yashirin iqtisodiy faoliyat olib boradi va bu o'z navbatida mamlakat iqtisodiy barqarorligiga tahdid soladi*. Chunonchi, noqonuniy migratsiyaning latentlik darajasi yuqori hisoblanadi, chunki bunda ish beruvchilar ham shaxsni qonunga xilof ravishda ishga yollaganligi yoki undan foydalanayotganligi haqidagi ma'lumotlarni oshkor qilishdan manfaatdor bo'lmaydi. Jumladan tadqiqot natijasida deyarli 80 foizdan ortiq ish beruvchilar migrantlarni noqonuniy ravishda ishga yollashlariga oid faktlarini yashirganlar.

Bundan tashqari migratsiyaning mehnat jarayonlariga ta'sirini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, ko'pchilik ish beruvchilar, odatda migrantlar bilan mehnat shartnomalarini rasmiylashtirishmaydilar, ularning atigi 58 foizi migrantlar bilan mehnat shartnomalarini tuzadi. Migrantlar bilan ish olib borishdagi asosiy faoliyatlar og'zaki kelishuvlar (92 foiz) doirasida amalga oshiriladi. Shuningdek, ish beruvchilar va turar joy egalari 52 foizdan ortig'i migrantlarni turgan joyi bo'yicha rasmiy ro'yxatdan o'tkazmaydilar yoki migrant amalda yashayotgan va uning rasmiy jihatdan ro'yxatdan o'tkazilgan manzili ham bir-biriga mos kelmaydi. Shu bilan birga yashash joyi bo'yicha soxta ro'yxatga olish yoki ko'p sonli migrantlarning ro'yxatga olinmaganligi kommunal to'lovlarning kam to'lanishiga, favqulodda vaziyatlar xizmatlarining ortiqcha yuklanishiga olib keladi.

Noqonuniy migratsiyaning salbiy oqibatlaridan yana biri bu **hududning sanitariya-epidemiologik vaziyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishida** hisoblanadi. Binobarin, mamlakatga kiruvchi shaxslar ko'pincha yuqumli kasalliklar tashuvchilari bo'lib, ular epidemiologik vaziyatni yomonlashtirishga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, mamlakatimizga hozirgi kunda yiliga 6,6 mln.dan ortiq chet fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tashrif buyurmoqda, biroq belgilangan qoidalarga binoan ulardan mamlakatga kirish uchun tibbiy ko'rikdan o'tganligi talab etilmaydi, ma'lumolarga qaraganda ularning o'rtacha 30 foizi har yili ixtiyoriy tibbiy ko'rikdan o'tadi. Bu esa, sanitar- epidemiologik vaziyatni yomonlashtirishi mumkin bo'lgan xavfli va yuqumli kasalliklarga, jumladan OIV/OITS infeksiyasi va silga qarshi kurashish uchun yetarli bo'lmaydi.

Noqonuniy migratsiyaning ijtimoiy xavfli oqibatlaridan yana biri bu - *jamiyatda ijtimoiy qarama-qarshiliklarni keltirib chiqarishi* mumkinligi bilan bog'liqligida hisobalandi. Garchi, chet el fuqarolari yoki madaniyat va mentalitetga mansub kishilarning muayyan davlat hududida to'planishi u yerdagi ijtimoiy jarayonlarga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatishi mumkin. Aksariyat chet el fuqarolari etnik kelib chiqishiga ko'ra guruhlariga to'planib, kelgan mamlakatida shakllangan madaniy jarayonlarga qo'shila olmay, ularning namonligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki, migrantlar tomonidan mahalliy urf- odatlar va munosabatlarning qabul qilinmasligi va ularga nisbatan nafratning uyg'onishi jamiyatda milliy, irqiy, diniy, etnik va boshqa qarashlari nuqtai nazaridan bo'linishlarga olib keladi va bu holat jamiyatda ijtimoiy nizolarni keskinlashishiga saba bo'ladi. Shu boisdan ham noqonuniy migratsiya va millatlararo nizolar bir-biri bilan bevosita bog'liq hodisalardan hisoblanadi, chunki bunda bir hodisa boshqa hodisani keltirib chiqarishga sharoit yaratadi.

Buning yana boshqa salbiy oqibatlari sifatida aytish mumkinki, migrantlar bilan kelib chiqadigan nizolar mamlakatda qonuniy asosda bo'lib turgan boshqa millat va elat vakillariga nisbatan ksenofobiyaning shakllanishiga olib keladi va bu esa o'z navbatida mintaqadagi xavfsizlikka tahdid qiladi. Xususan, ushbu masala bo'yicha tadqiqotda qatnashgan respodentlarga «Siz noqonuniy migrantlarning milliy xavfsizlikka xavf tug'dirishini qaysi darajada baholaysiz?» deb so'ralganda ularning 52 foiz o'ta yuqori, 38 foiz o'rtacha va 10 foiz past darajada deb baholashdi.

Noqonuniy migratsiyaning ijtimoiy xavfli oqibatlaridan yana biri bu *migratsiya sohasidagi davlat boshqaruvi tartibini buzishi va migrantlarning huquq va qonuniy manfaatlarining ta'minlanmay qolishiga olib kelishida* hisoblanadi. Ta'kidlaganimizdek, noqonuniy migratsiya nafaqat chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning mamlakat hududiga belgilangan tartibni buzgan holda kirishi yoki harakatlanishi bilan bog'liq holda sodir etiladi, balki davlatning yoki qabul qiluvchi mamlakatning migratsiya to'g'risidagi qonunchiligi yoxud xalqaro huquq norma talablarini buzish natijasida tashqi migratsiyani tashkillashtirish jarayonlarida ham sodir etiladi. Shu boisdan noqonuniy migratsiyaning ijtimoiy xavfiligi mazkur holatlarni ham inobatga olingan holda baholanishi maqsadga muvofiqdir.

#### Fodalanilgan adabiyotlar:

1. Рустамбаев М.Х. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодексига шарҳлар. Умумий қисм. - Т.: «Yuridik adabiyotlar publish», 2021. - Б. 89. (784 б.); Барчашвили И.Ш. Казахстан Республикасынын Кылмыстык Кодексине тусиндерме. Жалпы бөлим. 1-том. Алматы: Жеті жарғы, 2021. 1 т - Б. 285;  
Jinoyat huquqi (Umumiy qism) Darslik. Mualliflar jamoasi // Mas'ul muharrir. X.Ochilov - T.:Adolat nashriyoti, 2020l. - B. 26-32.
2. Усмоналиев М. Жиноят ҳуқуқи. Умумий қисм. Олий ухув юртлари учун дарслик. - Т., «Янги асп авлоди», 2010, - Б. 71.
3. Criminal Law: Doctrine, Application, and Practice. 2nd Edition by Assistant Professor of Law Jens David Ohlin. 2018. - P. 972. Фристер, Гельмут. Уголовное право Германии. Общая часть = Strafrecht. Allgemeiner Teil: пер. с нем. - 5-е изд. - М.: Инфотропик Медиа, 2013. - 712 с. Smith, Hogan and Ormerod's Criminal Law. David Ormerod and Karl Laird. Fifteenth Edition. Oxford University Press. 2018. - P. 1143. Simesters and Sullivan's Criminal Law: Theory and Doctrine. Seventh Edition // AP.Simester, JR.Spencer, F.Stark, GR Sullivan, GR Virgo. Hart Publishing. 2019. - P. 964.

4. Hamdorf K. The concept of a joint criminal enterprise and domestic modes of liability for parties to a crime: a comparison of German and English law // Journal of International Criminal Justice. 2007. Vol. 5, - № 1. - P. 208-210.
5. Innes M. The appliance of science? The theory and practice of crime intelligence analysis / M. Innes, N. Fielding, N. Cope // The British Journal of Criminology. - 2005. - Vol. 45, iss. 1. - P. 39-57. Millie A. Anti-social behaviour, behavioural expectations and an urban aesthetic / A. Millie // British Journal of Criminology. - 2008. - Vol. 48, - № 3. - P. 379-394.
6. Алланова А.А. Қонунга хилоф равишда чет элга чиқиш ёки Ўзбекистон Республикасига кириш учун жавобгарлик: жиноят-ҳуқуқий ва криминологик муаммолар. Юрид. фан. фалс. докт. дисс. автореф. - Тошкент: Тошкент давлат юридик университети, 2020. - Б. 12-13.
7. Тоштемиров А.А. Ноқонуний миграция ва одам савдосининг ижтимоий жараёндаги хавфи // Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академиясининг ахборотномаси. — 2021. — № 2 (49). - 108-112.
8. Отажонов А.А. Ноқонуний миграцияга қарши курашнинг жиноят-ҳуқуқий чораларини такомиллаштириш масалалари // Advokat - 2023.- № 2. - Б. 20-24.
9. Бучаков С.А. Незаконная миграция: криминологический подход // Вестник Омского университета. Серия «Право». - 2018. - № 2 (55). - С. 180-184.
10. Рашитов Л.Р. Преступления против порядка управления миграционной деятельностью в Российской Федерации: криминологический и уголовно-правовой аспекты. Дис. канд. юрид. наук. - Казань, 2019. - С. 50-51.
  1. Резник Г.А., Амирова Д.Р. Миграция как угроза национальной безопасности страны: международные и национальные аспекты // Интернет-журнал «Науковедение» Том 8, №6 (2016) <http://naukovedenie.ru/PDF/82EVN616.pdf>; Ахмедов М.Н. Противодействие нелегальной миграции: уголовно-правовой и криминологический аспекты. Автореф. канд. Юрид. Наук. Москва — 2016. - С. 12 (22)
  2. Магеррамов М.А. Нелегальная миграция: понятие, общественная опасность, уголовно-правовое и криминологическое противодействие (по материалам России и Азербайджана). Автореф. дис. канд. юрид. наук. - М., 2008. - 18-19.
  3. Жисмоний ва маънавий етук ёшлар - эзгу мақсадларимизга етишда таянчимиз ва суянчимиздир. Президент Шавкат Мирзиёевнинг «Камолот» ёшлар ижтимоий қаракатининг IV қурултойидаги нутқи // Халқ сузи. - 2017. - 14. июль <https://uza.uz/uz/posts/zhismoniy-va-manaviy-etuk-yeshlar-ezgu-ma-sadlarimizga-etish-30-06-2017>
5. <https://MBGK/Deljatelnost/statistics/migracionnaya>.
6. Нелегальная миграция и наркотическая война против России. URL: <https://topwar.ru/25326-nelegalnaya-migraciya-i-narkoticheskaya-voyna-protiv-rossii.html>.
7. <https://www.gazeta.uz/uz/2022/04/20/narcotic/>